energiyasi jami quvvatning 50 foizidan oshgan. Shuningdek, tahlillarga ko‘ra, 2050 yilda quyosh foto elektr stansiyalari global miqyosda yangi elektr energiyasining eng arzon manbai bo‘ladi. Barcha davlatlar 100 foiz “yashil” energiyaga o‘tishni reja qilgan. Demak, “yashil” energiyadan foydalanish biz uchun energiya barqarorligiga erishish va ekologiya muammosini hal qilish imkonini beradi.

Xulosa

Yurtimizda so‘nggi yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish borasida bir qator qonun va qarorlar qabul qilingan va ularning ijrosini ta’minlash bo‘yicha amaliy ishlar ketmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevraldagi “2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini ta’kidlash zarur. Shuningdek, Prezidentimizning PF-220-sonli farmoni va PQ-57-sonli va PQ-156-sonli qarorlarida bir qator imtiyozlar berilgan. Xususan, quyosh yoki shamol elektr stansiyasini o‘rnatganlik uchun BHM ning 7 barobaridan 50 barobarigacha kompensatsiyalar beriladi. 2023 yil 1 apreldan boshlab umumiy quvvati 100 kVtgacha bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatgan jismoniy va yuridik shaxslar ushbu qurilmalar bo‘yicha mol-mulk solig‘i, qurilmalar bilan band bo‘lgan uchastkalar bo‘yicha jismoniy va yuridik shaxslar 3 yildan 10 yilgacha yer solig‘idan ozod etiladi. Bundan tashqari, hozirda banklarda quyosh panellari va suv isitkichlarini o‘rnatishni moliyalashtirish uchun imtiyozli “Yashil energiya” krediti tashkil etilgan.“O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga asosan 2030 yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatini 25 ming MVtga hamda jami iste’moldagi ulushini 40 foizga yetkazish reja qilingan. Mamlakatimizda yilning 320 kuni quyoshlidir, bu esa muqobil energiya manbalarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi.

Manbalar ro’yxati:

1. Vapayev M., Shomurodov S., Patxullayeva M. Yashil energetika kelajak energetikasi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.
2. Тошбоева Р.С. (2020). Экологизация экономики Узбекистана: правовой аспект совершенствования инвестирования. журнал правовых исследований
3. Karabanov S.M., Bezrukix P.P., Gordienko G.V., Kuropov M.V. Mamlakatning energiya balansida qayta tiklanadigan Energiya // Muqobil energiya va ekologiya.2010 yil. №2.
4. Jamoliddinovic, U. B. . (2022). Origins, Dynamics and Logics Bologna Process. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 5, 239–245. Retrieved from https://emjms.academicjournal.io/index.php/emjms/article/view/254
5. Ryabov A.V. Shamol energiyasi yangi yo’nalish sifatida ko’p qavatli binolarni me’moriy shakllantirishda // Muqobil energiya va ekologiya.2011 yil. №1.

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHGA ERISHISHDA “YASHIL” IQTISODIYOTNING AHAMIYATI

Shomirzayev Abdug‘affor Abdujabbor o‘g‘li
Termiz davlat universiteti
Iqtisodiyot va turizm fakulteti
Raqamli iqtisodiyot, biznes boshqaruvi va
ekonometrika kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu tezisda barqaror rivojlanish va “yashil” iqtisodiyotning o‘zaro bog‘likligi hamda barqaror rivojlanishning asosiy omillari xususidagi fikrlar bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *barqaror rivojlanish, “yashil” iqtisodiyot, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlik.*

Annotation: *In this thesis, the mutual relationship between sustainable development and “green” economy and main factors of sustainable development were identified.*

Key words: *sustainable development, “green” economy, economic, social and ecologic sustainability.*

Аннотация: *В данной диссертации были определены взаимосвязь между устойчивым развитием и «зеленой» экономикой, а также основные факторы устойчивого развития.*

Ключевые слова: *устойчивое развитие, “зеленая” экономика, экономическаяб социальная и экологическая устойчивость.*

Barqaror rivojlanish hozirgi kunda iqlim o‘zgarishi, ijtimoiy tengsizlik va resurslarning kamayishi kabi muammolarni hal qilishda muhim konsepsiya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi insoniyat kelajagi uchun muhim manba bo‘lib, u BMTning qaror va hujjatlarida o‘z ifodasini topgan. Barqaror rivojlanishning iqtisodiy-ekologik asosi, bu “yashil” iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. BMTning “Biz xohlayotgan kelajak” konsepsiyasida ta’kidlanganidek, “yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi barqaror rivojlanish konsepsiyasi o‘rnini bosa olmaydi, ammo, barqaror rivojlanishga erishishga ko‘p jihatdan yordam beradi[1].

Barqaror rivojlanish va “yashil” iqtisodiyotning o‘zaro bog‘liqligi xususida turli adabiyotlarda turlicha keltirilgan. Xususan, M.T. Boltaboyev va E. A. Muminovalarning “Yashil” iqtisodiyot kitobida shunday fikrlar keltirilgan. “Yashil” iqtisodiyot barqaror rivojlanishga erishish vositasidir. “Yashil” iqtisodiyot “yashil” ish o‘rinlarini yaratadi va bandlikka ko‘maklashadi. “Yashil” iqtisodiyot resurslar va energiyalarni tejaydi. “Yashil” iqtisodiyot bu ekologik cheklovlarni buzmaydi. “Yashil” iqtisodiyot taraqqiyotni nafaqat YIM orqali balki ekologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha ham baholaydi. “Yashil” iqtisodiyot bu o‘zaro tenglik va mamlakatlar va avlodlar o‘rtasidagi adolatdir. “Yashil” iqtisodiyot bioxilma-xillik va ekotizimlarni himoya qiladi. “Yashil” iqtisodiyot qashshoqlikni kamaytiradi, aholi faravonligini oshiradi va ijtimoiy himoyasini ta’minlaydi[2].

Barqaror rivojlanish uchta asosiy iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni muvozanatlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy barqarorlik jamiyatning barcha a’zolari uchun iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikni ta’minlaydigan barqaror iqtisodiyotdir. Shuningdek, iqtisodiy barqarorlik atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan hamda tabiiy resurslarni tugashiga ta’sir etmaydigan iqtisodiy faoliyat bo‘lib, innovatsiya va samaradorlikni rag‘batlantirishni o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy barqarorlik jamiyatning barcha a’zolari uchun ijtimoiy tenglik va farovonlikni rag‘batlantirishga qaratilgan. Shuningdek, ijtimoiy barqarorlik ijtimoiy

[1] Boltaboyev M.T, Muminova E.A. “Yashil” iqtisodiyot. Darslik. FPI. 2023. 16 bet.
[2] Boltaboyev M.T, Muminova E.A. “Yashil” iqtisodiyot. Darslik. FPI. 2023. 20 bet

adolatsizliklarni oldini olish, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ish bilan ta’minlash imkoniyatlaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Ekologik barqarorlik bu kelajak avlod uchun tabiiy ekotizimlarni, biologik xilma-xillikni hamda resurslarni saqlash va muhofaza qilishni o‘z ichiga oladigan ekologik faoliyatdir. Shuningdek, ekologik barqarorlik ifloslanishni kamaytirish, suv va energiyani tejash, qayta tiklanuvchi energiya manbaalarini rag‘batlantirish hamda iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirlarini yumshatishga qaratilgan faoliyatlarni o‘z ichiga oladi[3].

Barqaror rivojlanish hamda yashil iqtisodiyotga doir adabiyotlar va manbaalarda barqaror rivojlanish atamasiga qo‘shimcha holatda fanga barqaror iste’mol va barqaror ishlab chiqarish kabi yangi atamalar ham kirib kelmoqda. Barqaror iste’mol va ishlab chiqarish mahsulot ishlab chiqarish jarayonining to‘liq davri mobaynida resurslar ishlatilishi hamda ortiqcha chiqindilar chiqishini kamaytirish uchun ishlab chiqarish hamda iste’mol qilish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan. “Yashil” iqtisodiyot investitsiyalar, ish bilan bandlik va yuqori malakali kadrlarga asosiy e’tiborni qaratgan holda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish uchun makroiqtisodiy yondashuvga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Boltaboev M, Muminova E. “Yashil” iqtisodiyot. Darslik. FarPI. 2023.
2. Vahobov A.B., Xajibakiyev X.K. “Yashil iqtisodiyot”. Darslik. Toshkent. Universitet. 2020.
3. BMT rasmiy sayti elektron kutubxonasi
4. Urinov, Bakhrom Djamoliddinovich (2020) "THE QUALITY OF EDUCATION AND THE MAIN FACTORS AND CRITERIA THAT DETERMINE IT," Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 2 : Iss. 6 , Article 84.
5. “UNO environment program” internet sayti kutubxonasi.

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH UCHUN DAVLAT SIYOSATLARI

Toyirov Alijon Yodgor o‘g‘li.
Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali
Iqtisodiyot yo‘nalish talabasi
”TKTI Shahrisabz filiali ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasi
katta o'qituvchisi O.T.Sadullayev„

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotga o‘tishning dolzarbligi, yo‘llari va imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Bu jarayonda to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan ekologik va iqtisodiy muammolar, ularning tahlili va yechimlar ham yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *yashil iqtisodiyot, energiya samaradorligi, resurslar, ekologik muammolar, qishloq xo‘jaligi, uglerod chiqindilari, iqlim, islohotlar, tiklanadigan energiya manbalari.*

Аннотация*: В данной статье рассматриваются актуальность, пути и возможности перехода к зеленой экономике. Также освещены экологические и экономические проблемы, их анализ и решения, которые могут помешать этому процессу.*

[3] BMT. Atrof-muhit dasturi web-sayti kutubxonasi